

JAZONI YENGILROG'I BILAN ALMASHTIRISH JINOIY-HUQUQIY OQIBATLARI

Otanazarov Azizbek

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479899>

Quyidagi maqolada jinoyat huquqining eng muhim Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. U insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanib, mahkumga o'z xatti-harakatlarini tuzatish va jamiyatga qayta moslashish imkonini beradi.

Asosiy qism: Shaxs jinoyat qonunchiligi bilan ta'qiqlangan qilmishgsodir qilishi bilan u va davlat o'rtasida ma'lum bir tarzda jinoyat-huquqiy munosabatlar paydo bo'ladi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu institut orqali davlat jazolash bilan birga insonparvarlik tamoyillariga ham amal qiladi. Har bir jinoyat sodir etgan shaxsni faqat jazolash emas, balki uni tuzatish va jamiyatga qayta moslashtirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababli ayrim hollarda og'irroq jazolarni yengilroq jazo turlari bilan almashtirish imkoniyati mavjud. Bu esa mahkumning xulq-atvoriga, uning tuzalish darajasiga va jamiyat uchun xavflilik darajasining kamayganiga bog'liq bo'ladi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutining ahamiyati juda katta. Avvalo, bu tizim mahkumlarni yaxshi xulq ko'rsatishga undaydi. Chunki ular o'zlarini ijobiy tomondan ko'rsatish orqali jazoni yengilroq shaklga o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutining ahamiyati juda katta. Avvalo, bu tizim mahkumlarni yaxshi xulq ko'rsatishga undaydi. Chunki ular o'zlarini ijobiy tomondan ko'rsatish orqali jazoni yengilroq shaklga o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga oid qonunlarni qo'llashda sud amaliyotida masalalar kelib chiqayotganligi munosabati bilan, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaror qiladi. Va Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga oid qonun talablarini aniq va og'ishmay bajarish mahkumlarni qayta tarbiyalash, takroran jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hamda insonparvarlik kabi jinoyat-huquqiy prinsipni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga oid qonun talablarini aniq va og'ishmay bajarish mahkumlarni qayta tarbiyalash, takroran jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hamda insonparvarlik kabi jinoyat-huquqiy prinsipni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, muqaddam jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan voyaga yetmagan mahkum jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, unga nisbatan JK 89, 90-moddalari umumiy asoslarda qo'llaniladi.

Adabiyotlarda, umuman olganda jinoyat qonunchilik hujjatlarida ham "Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish" to'g'risida aniq bo'lgan ta'rif keltirib o'tilmagan. Shuningdek Jinoiy jazolarni ijro etish jarayonida amalga oshirilgan tuzatish ta'siri natijasida mahkum shaxsining ijtimoiy xavfliligi darajasi o'zgarishi mumkin. Jazoni almashtirish Jinoyat kodeksining 80-moddasi keltirib o'tilgan.

Qoida tariqasida, o'zgarishlar uning pasayishiga, ya'ni mahkumni tuzatishga qaratilgan. Agar sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugashidan oldin tuzatish amalda amalga oshirilsa, jazo choralari qo'llash zarurati butunlay yo'q bo'lib ketsa, mahkum shartli ravishda ozod qilinadi. Biroq, ko'pincha bunday deyarli to'liq tuzatish bo'lmagan taqdirda ham, mahkumga nisbatan eng qattiq jazo turlarini, ayniqsa ozodlikdan mahrum qilishni qo'llash zarurati yo'qoladi: uni yanada tuzatish jazoning engil turlariga xos bo'lgan huquq va erkinliklarning kamroq jiddiy cheklovlari sharoitida mumkin bo'ladi.

Bunday hollarda mahkumni jazolash yumshoqroq ko'rinishga almashtirilishi mumkin.

Jazoni uning yumshoqroq turi bilan almashtirish jinoiy jazoni o'tashning progressiv tizimi deb ataladigan muhim tarkibiy qism bo'lib, unda mahkumning huquqiy maqomi va qo'llaniladigan ta'sir choralari jiddiyligi uning tuzatish yo'lidagi xatti-harakatlariga bog'liq.

Shuningdek, O'zgartirishning moddiy asosidan tashqari, mahkumning tuzatish yo'lga o'tishi ham sud tomonidan tayinlangan jazoning muayyan qismini amalda o'tash talab etiladi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan asos haqiqatda to'g'ri talqin qilish deyish mumkin, chunki sudlanganlik o'zida jinoiy qilmish yakunlangan va jazo o'tab bo'lgandan keyin, muayyan vaqt davomida oqibatlarini keltirib chiqaruvchi holatdir.

Quyida sudlanganlik shaxsning huquqiy holatiga qanday ta'sir qilishi to'g'risida to'xtalib o'tamiz:

Agar shaxs turli toifaga oid bir necha jinoyat yoki bir necha hukm majmui bo'yicha sudlangan bo'lsa, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilroq'i bilan almashtirish masalasini hal etishda, jinoyatlar yoki hukmlar majmui bo'yicha tayinlangan uzil-kesil jazodan kelib chiqish lozim. Jazoning uni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki yengilroq'i bilan almashtirish imkoniyatini beruvchi va haqiqatda o'talishi shart bo'lgan jazo muddatini hisoblashda, sudlar jinoyatlar va hukmlar majmuiga kiruvchi va eng og'ir jinoyat uchun JK 73, 74, 89, 90-moddalari uchinchi qismi "a" "b" "v" bandlarida nazarda tutilgan qoidalarni qo'llashlari lozim; JK 73-moddasining 4-qismida ko'rsatilgan shaxslar boshqa jinoyat sodir etganligi aniqlanib, keyingi hukm bo'yicha jazolar JKning 59-moddasi 8-qismi yoki 60-moddasi tartibida qo'shilganda, JK 73-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa jazoning o'talmagan qismi yengilroq'i bilan almashtirilishi yoki jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilinishi mumkin emas. Sudlarga tushuntirilsinki, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chog'ida mahkumning zimmasiga JK 73-moddasi beshinchi qismidagi majburiyatlar yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina yuklanishi mumkin. JK 74-moddasiga muvofiq ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan shaxsga nisbatan sud jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirishi mumkin.

Buning uchun mahkum tomonidan jazoning qonunda belgilangan qismi haqiqatda o'talganligi, mazkur jazo turi uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarining bajarilganligi va mehnatga halol munosabatda bo'lganligi asos bo'ladi. Shuni nazarda tutish lozimki, JK 74-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismini axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, u ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash, axloq tuzatish ishlarining o'talmagan qismi jarima jazosi bilan almashtirilganda esa, sudlar JK 44-moddasining uchinchi qismi yoki 82-moddasi ikkinchi qismi qoidalariga rioya etishlari va bunda jinoyat sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqishlari lozim.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti JK 74-moddasiga muvofiq jazosi yengilroq jazo turi bilan almashtirilgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Bunda shuni nazarda tutish lozimki, mahkum tomonidan yengilroq jazoning JK 73-moddasi uchunchi qismida nazarda tutilgan qoidalarga binoan, mazkur jazo ijrosi boshlangan kundan hisoblanadigan muayyan muddati amalda o'talganidan so'ng u jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi mumkin.

Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, ular nafaqat mahkumlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni asossiz ravishda rad etishga, balki asossiz ravishda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga ham yo'l qo'ymasliklari lozim. Sud qonunda nazarda tutilmagan asoslar, jumladan, oldingi jinoyatlari uchun sudlanganlik holati mavjudligi, tayinlangan jazo yengilligi, mahkum aybiga iqror emasligi, muayyan jazoni ijro etish muassasasida qisqa vaqt mobaynida bo'lganligi va h.k. bo'yicha jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni rad etishga haqli emas.

Sodir etilgan jinoyat xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi (uning og'irligi va oqibatlari) ham iltimosnoma yoki taqdimnomani rad etish uchun asos bo'lmaydi, chunki bu holatlar jazo tayinlangan vaqtda inobatga olingan bo'lib, bundan tashqari, JK 73, 74, 89 va 90-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar belgilanishi mezonini hisoblanadi. Mahkumda jazoni ijro etish davrida qo'llanilgan ta'sir choralari mavjudligi, o'z-o'zidan, uning tayinlangan jazoni o'tashni davom ettirishi zarurligidan dalolat bermaydi.

Mazkur masalani hal etishda, har doim, nafaqat bevosita iltimosnoma kiritilishi arafasida, balki jazoni o'tashning butun davrida mahkum tomonidan yo'l qo'yilgan har bir tartib-buzarlikning muayyan holatlari, og'irligi va xususiyati, ta'sir choralari olib tashlanishi yoki tugallanishiga oid ma'lumotlar, oxirgi ta'sir chorasi qo'llanilganidan so'ng o'tgan vaqt, mahkumning keyingi xulq-atvori va uni tavsiflovchi boshqa ma'lumotlar inobatga olinishi lozim.

Ba'zi bir yengillashtiruvchi jinoyiy-huquqiy normalarni qo'llashni inkor etuvchi holat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori, 27.12.2016 yildagi 28-son, Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish